
Rishton tumanida 50 o'rinli yangi oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti ish boshladi

Mustaqillik inshootlari

Barchamizga ma'lumki, har yili yurtimizda mustaqillik bayrami arafasida yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy, maishiy va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini foydalanishga topshirish an'anaga aylangan.

Bugun ham tumanimizda Mustaqillik bayrami arafasida navbatdagi ob'ekt ochildi.

Rishton tumanida "Bolajon" nomli oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ish boshladi. Yangi bog'chani ochilish marosimida tuman hokimi, sektor rahbarlari va o'rinbosarlari, jamoatchilik vakillari hamda mahalla faollari ishtirok etdi.

Tadbirda tuman hokimi ta'kidlaganidek, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rishton tumanida ham maktabgacha ta'lim maskanlarini ko'paytirish uchun oilaviy, nodavlat hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalar tashkil etilmoqda. Natijada tumanda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi yildan yilga ortib bormoqda.

Rishton tumani 4-sektor hududidagi "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'inida yangi tashkil etilgan mazkur oilaviy bog'chada ham 75 nafar bolajonlar maktabgacha ta'limga jalb etildi.

Yangi maktabgacha ta'lim muassasasida kichkintoylarning sifatli boshlang'ich ta'lim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Ushbu maktabgacha ta'lim muassasasida rus va ingliz tili, raqs, mental arifmetika singari to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yaqin kunlarda tarbiyalanuvchilar sonini 100 nafarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Ushbu maskan sohibkorliklar uchun mustaqilligimizning 33 yiligiga ajoyib sovg'a bo'ldi.

2024-08-30 19:07:10